



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ • E-mail: info@xs.uz

2025-yil 20-may, № 101 (8996)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTNING VENGRIYAGA RASMIY TASHRIFI BOSHLANDI

Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbanning taklifiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rafiqasi bilan birga rasmiy tashrif bilan Budapesht shahriga keldi.

Samolyot oldida O'zbekiston yetakchisini Vengriya iqtisodiy rivojlanish vaziri Marton Nad va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Ferens List nomidagi xalqaro aeroportda oliy martabali mehmon sharafiga ikki mamlakat davlat bayroqlari ko'tarildi, faxriy qorovul saf tortildi.

Tashrif dasturiga muvofiq oliy darajadagi O'zbekiston – Vengriya muzokaralari bo'lib o'tadi.

Davlatimiz rahbari Vengriyaning rasmiylari va yetakchi kompaniyalari rahbarlari bilan ham uchrashuvlar o'tkazadi.

O'zbekiston Prezidenti 21-may kuni Vengriya poytaxtida Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy sammitida ishtirok etadi.

O'ZA.

O'ZBEKISTONNING YEVROPADAGI ISTIQBOLLI SHERIKLARI

So'nggi yillarda O'zbekiston dunyoning boshqa davlatlari qatori Yevropa Ittifoqi va unga a'zo mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalarini mintazam ravishda kengaytirmoqda.

Biz va jahon

Xususan, mamlakatimizning YEI davlatlari bilan aloqalari mustahkamlanishi jarayonida Vengriya muhim o'rin tutadi. Munosabatlarning strategik sheriklik darajasiga ko'tarilishi, ikki tomonlama muloqotning faollashishi, shuningdek, Vengriya kompaniyalarining O'zbekistondagi investitsion faolligi o'sishi ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikning yuqori salohiyatidan dalolat beradi. Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Vengriya tomonining taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'lishi ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladigan muhim siyosiy voqeligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Vengriya salkam 10 mln. aholiga ega bo'lib, Markaziy Yevropadagi iqtisodiyoti va sanoati yuksak darajada rivojlangan davlat hisoblanadi.

Vengriya mintaqaning bir qator muhim mamlakatlari, masalan, Avstriya, Slovakiya, Ukraina va Ruminiya bilan chegaradosh. 2024-yili mamlakatda YAIM 221,9 mlrd. dollarga yetdi, bu – aholi jon boshiga hisoblaganda 23100 dollar demak. Iqtisodiyot tarkibi xizmat ko'rsatish sohasining ustuvor ulushi (64,8 foiz), undan keyin sanoat (31,3 foiz) va qishloq xo'jaligi (3,9 foiz) bilan tavsiflanadi. Yetakchi sanoat tarmoqlari sifatida mashinasozlik (shu jumladan, avtomobil va kemasozlik), metallurgiya, kimyo va farmatsevtika sanoati, shuningdek, oziq-ovqat va yengil sanoat tarmoqlarini tilga olish mumkin. Vengriyaning 2024-yildagi tashqi savdo hajmi 480 mlrd. dollarni tashkil etdi.

O'zbekiston va Vengriyaning o'xshash jihatlari bor. Xususan, har ikki mamlakat ham qurollik bilan o'ralgan, okeanga to'g'ri chiqma olmaydigan davlatlardir.

➡2

QURILISH MATERIALLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN SAMARALI YONDASHUVLAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev qurilish materiallari sanoatidagi ishlar va asosiy vazifalarga oid taqdimot bilan tanishdi.

Aholi soni o'sib, urbanizatsiya kengayib borayotgani sifatida qurilish materiallariga talabni yildan-yilga oshiryapti. Tarmoq shunga mos ravishda rivojlantirib borilmoqda. Ko'plab loyihalarni amalga oshirilib, hozirgi kunda 10 mingga yaqin korxonalar faoliyat yuritmoqda.

Bu yil birinchi chorakda ishlab chiqarish 8 foizga, eksport esa 11 foizga o'sdi. Investitsiya dasturi doirasida 500 million dollarlik 9 ta yirik loyihaga tushdi. Dushanbe, Kobul va Filadelfiya shaharlarida

"O'zbekiston savdo uyi" tashkil etildi.

Hali oldinda rejalar ko'p. Yil yakunigacha 2,4 milliard dollarlik 312 ta loyihani bajarib, 16 ming yuqori daromadli ish o'rni yaratish, ishlab chiqarish miqdorini 53 trillion so'mga, eksportni 1,2 milliard dollarga yetkazish mo'ljallangan.

Taqdimotda mutasaddilar ushbu ko'rsatkichlarga erishish chora-tadbirlari yuzasidan axborot berdi.

Davlatimiz rahbari sohada sifat, tannarx va qurilish madaniyati eng

dolzarb masala ekanini ta'kidladi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etib, mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, yurtimizdagi bunyodkorlik ishlarida ulardan kengroq foydalanish vazifalari ko'rsatib o'tildi.

Bunga erishishda ilm-fan va amaliy ishlanmalar muhim. Shu maqsadda soha bo'yicha "R&D" tadqiqotlar markazi ochildi, Germaniyadan maslahatchi jalb qilindi.

Misol uchun, ariq va kanal yuzalari

uchun o'rnamli beton qoplamasi tayyorlash texnologiyasi bo'yicha ish boshlangan. Natijada betonlashga ketadigan vaqt va xarajat 10 foizga, suv sarfi 3 – 5 foizga kamayishi hisob-kitob qilingan.

Prezidentimiz geologiya va ilmga katta e'tibor qaratib, ichki va tashqi bozorlar uchun yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar yetkazib berish zarurligini ta'kidladi. Energiya va resurs sarfi yuqori yo'nalishlarni tahlil qilib, tejamkor innovatsion yechimlarni qo'llash muhimligi qayd etildi.

O'tgan yili tarmoqdagi yirik korxonalar energiya auditidan o'tkazilganda 300 million kilovatt-soat iqtisod qilish imkoniyati aniqlangan. Bunday korxonalarda texnologiyani yangilash hamda ish tartibini oqilona tashkil etish orqali xarajatlarni kamaytirish mumkinligi qayd etildi.

"Shaffof qurilish" platformasida qurilish materiallari korxonalarini reestrini tashkil qilib, u orqali sifat nazoratini ta'minlash vazifasi qo'yildi.

YANGI YO'NALISH YO'LOVCHILARGA QULAYLIK YARATADI

Davlatimiz rahbariga Toshkent metropolitenini rivojlantirish bo'yicha rejadagi loyihalar yuzasidan axborot berildi.

Poytaxtimiz jamoat transportida metropolitenning o'rni juda katta. Yo'lovchilarga qulayliklarni oshirish maqsadida yangi yo'nalishlar qurilmoqda. Yunusobod yo'nalishi Turkiston bekatigacha, Chilonzor yo'nalishi Sergeli tumanigacha uzaytirildi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Toshkentda yer usti metrosi ham paydo bo'ldi – Do'stlik bekatidan Sergeligacha bo'lgan yer usti halqasi barpo etildi.

Bu yangi yo'nalishlar poytaxtimizning Yunusobod, Yashnobod, Bektemir, Mirobod, Sergeli va Yangiyo'l tumanlarini bog'lab, aholining kundalik qatnoviga katta qulaylik yaratadi.

Endi metropoliteni Toshkent traktor zavodi dahasigacha olib borish rejalashtirilgan. Bu bo'yicha o'tgan avvalgi muhokamalarda Prezidentimiz loyihani mablag' va qulaylik jihatidan maqbulashtirish vazifasini qo'ygani edi.

Shu asosda tayyorlangan yangi taklifga ko'ra loyihani 2 bosqichda amalga oshirish nazarda tutilmoqda. Birinchi bosqichda Chilonzor yo'lining Pushkin bekatidan Mirzo Ulug'bek tumanining Feruza dahasigacha mavjud temir yo'lga parallel ravishda yer yuzasi bo'ylab metro yo'li quriladi. Ikkinchi bosqichda u yerdan Toshkent traktor zavodi dahasi shohbekatigacha yo'nalish barpo etiladi.

Hozirgi kunda shu yo'nalishdan poytaxtimiz markaziga bir kunda 47 mingta avtotransport, jami 194 mingta yo'lovchi kirib kelishi kuzatilmoqda. Rejalashtirilgan yangi yo'nalish kuniga 85 ming yo'lovchini qamrab olishi kutilmoqda.

Taqdimotda loyihaning texnik va amaliy jihatlari batafsil ko'rib chiqildi.

O'ZA.

KITOB — MO'JIZA, — QUDRATLI KUCH

Tafakkur – odamzodga berilgan ne'matlar gultoji. Uni boyitish, kengaytirish, charxlab turish zarur. Kitob mutolaasi qayroqto'sh kabi kitobxonni keskirso'z, sinchiko'z qiladi. Umuman olganda, shaxs kamolotida mutolaaning o'rni xususida ko'p va xo'b gapirish mumkin.

Tasavvur qiling, katta shahar ko'chasi. Kimdir quloqchun taqqan, kimdir telefon ekraniga ko'z tikkan, yana kimlardir gadjetlarga mukkasidan ketgan. Metro va avtobuslarda, xiyobon o'rindiqdarida ham manzara o'zgarmaydi, ya'ni berilib kitob o'qiyotgan odamni uchratish mahol. Ha, bugunning manzarasi shu. Biz "axboriy portlash davri"da yashayapmiz. Soiniya sayin o'zgaruvchan zamonda mamlakatimizda kitobxonlikni rivojlantirish va mutolaa madaniyatini yuksaltirish masalasi ortda qolmayaptimi? Aslo yo'q.

"Kitobsevar millat"ga aylanamiz

Yurtimizda 2020 – 2025-yillarga mo'ljallangan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash dasturi qabul qilinib, shu asosda yoshlarning ma'naviy, badiiy talablariga javob beradigan kitoblar chop etish, nashriyot va ijodkorlar faoliyatini qo'llab-



Mulohaza

quvvatlashga e'tibor qaratilmoqda. Bunday xayrli loyihalar Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgani o'z samarasini bermoqda.

Davlatimiz rahbari shu yilning 14-fevral kuni bir guruh yoshlar bilan o'tkazgan muloqoti chog'ida ham ayni masalaga urg'u berdi. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Kitobsevar millat" g'oyasi asosida yoshlarda mutolaa madaniyatini shakllantirish umummilliy harakatga aylandi.

Bugun ma'rifatli jamiyatni tarbiyalashga xizmat qiluvchi ezgu ishlarga har bir tashkilot, muassasa baholi qudrat hissa qo'shyapti. Kitobxonlikni rivojlantirishga doir hukumatning turli dasturlari qabul

qilingan, vazirliklar va tashkilotlar tomonidan har xil musobaqalar, aksiyalar hamda ko'rik-tanlovlar o'tkazilmoqda. Masalan, "Ziyo ulash", "Qadrdon maktabimga kitob sovg'a qilaman" aksiyalari, "Kitob bayrami" festivallari, "Kitob karvoni" loyihalari hamda "Kitobxonlik haftaligi" kabi tadbirlar xalqimizda, ayniqsa, yoshlarda katta qiziqish uyg'otdi. Xususan, an'anaviy tarzda o'tkazilayotgan "Yosh kitobxon" tanlovidagi ishtirokchilar soni 6 karra oshib, 3 million nafarga yetdi. Bir guruh faol yoshlar tomonidan yaratilgan "Mutolaa" loyihasi orqali 1 milliondan ortiq yoshlar kitobxonlar qatoriga kirdi.

➡4

Uchrashuv

Kun tartibida — barqaror rivojlanishni ta'minlash

Kecha Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik bo'yicha Termiz muloqotining birinchi yig'ilishida ishtirok etish uchun mamlakatimizga tashrif buyurgan BMT Bosh kotibining maxsus vakili, BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi rahbari Xaxa Imnadze bilan uchrashdi.

Suhbat chog'ida tomonlar mintaqaviy ahamiyatga ega dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashib, markaz mandati doirasida amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalarini muhokama qildi. Xususan, mintaqada tinchlik, barqarorlik va yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, birgalikda barqaror taraqqiyotni ta'minlash kabi masalalarga alohida e'tibor qaratildi.

Uchrashuvda Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasida ilgari surilgan tashabbuslar va qabul qilingan muhim hujjatlarining ijrosini ta'minlashda xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMT tizimidagi tuzilmalarning faol ishtiroki masalalari ham muhokama etildi.

Shuningdek, joriy yil sentyabr oyida O'zbekistonda o'tkazilishi rejalashtirilayotgan Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvi doirasida Markaziy Osiyo davlatlari ayol yetakchilari muloqotining parallel yig'ilishini tashkil etish imkoniyatlari bo'yicha fikr almashildi. Bunday yig'ilishlar ushbu platformaning institutsionlashuviga xizmat qilishi va ayollarning siyosiy, ijtimoiy jarayonlardagi faol ishtirokini kuchaytirishga yordam berishi ta'kidlandi. Uchrashuv yakunida tomonlar o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlash va mintaqaviy tashabbuslarni amalga oshirishda hamijihatlikda ish olib borishga tayyor ekanini bildirdi.

"Xalq so'zi".

Parlament nazorati

HUUDLARDAGI SOLIQLAR MEKANIZMLARIDAN QANDAY FOYDALANILYAPTI?

Prezidentimiz raisligida shu yil 18-aprel kuni ishlab chiqarish, eksport va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, savdo hamda sanoat siyosati samaradorligini oshirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda belgilab berilgan vazifalar ijrosi bo'yicha hududlarda seminarlar tashkil etilmoqda.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi a'zolari ishtirokida Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand viloyatlarida o'tkazilgan seminarlarda hududlarni rivojlantirishda mavjud salohiyat, imkoniyat, tadbirkorlik faolligiga e'tibor qaratilgan holda soliq mexanizmlarini qo'llashda mahalliy Kengashlarning roli va vazifalariga doir masalalar atroflicha ko'rib chiqildi.

Tuman va shaharlarda qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer solig'i va ijara to'lovlari uchun belgilangan stavkalariga oshiruvchi yoki pasaytiruvchi koeffitsiyentlar belgilash ishlarining holati xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari raislari, kotibiyat mudirlari,

doimiy komissiya raislari, Iqtisodiyot va moliya, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirliklari, Soliq qo'mitasi hamda Kadastr, Davlat aktivlarini boshqarish agentliklarining hududiy boshqarmalari rahbarlari va boshqa mutasaddilar ishtirokida chuqur tahlillar asosida muhokama qilindi.

Aytilganidek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mahalliy vakillik organlari faoliyatini takomillashtirishga oid bir qator normalarning belgilanishi xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining joylarda dolzarb masalalarni bartaraf etish, hududlar hayoti bilan bog'liq muhim qarorlar qabul qilishdagi roli va mustaqilligini mustahkamlashga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi.

➡2

Munosabat

NAVQIRON AVLOD TARBIIYASI — HAYOT-MAMOT MASALASI

Mamlakatimizda yildan-yilga ta'lim sohasiga qaratilayotgan e'tibor ortib bormoqda. Bunda innovatsion va kreativ fikrlaydigan zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari qilib tarbiyalash masalalari ustuvorlik kasb etmoqda.

Buni biz birgina mazkur soha rivoji uchun ajratilayotgan mablag'lar misolida ham ko'rishimiz mumkin. Oxirgi yetti yilda maktabgacha va maktab ta'limi uchun ajratilgan mablag' hajmi 7 karra oshgani, joriy yilda bu ko'rsatkich 60 trln. so'mni tashkil etgani ham fikrimiz tasdiq'idir.

Davlatimiz rahbari raisligida o'tkazilgan maktab

ta'limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida boshlangan ishlarni izchil davom ettirish va sohada yechimini kutayotgan galdagi dolzarb vazifalar yuzasidan aniq tashabbuslar ilgari surildi.

➡3

TA'LIM SIFATI UCHUN KURASH KELAJAK OLDIDAGI MAS'ULIYAT DEMAKDIR

Bugungi kunda jahon miqyosida yuz berayotgan shiddatli o'zgarishlar ta'lim tizimi oldiga yangi va murakkab vazifalarni qo'yimoqda. Zero, raqamli texnologiyalar va axborot xuruj kuchaygan hozirgi davrda sog'lom, bilimli, teran fikrli, vatanparvar yoshlarni tarbiyalash yorug' kelajakni hamda taraqqiyotni ta'minlashning asosiy omilidir.

Ta'kidlash kerakki, mustaqil fikrlaydigan va ijtimoiy mas'uliyatga ega avlodni faqat yuqori malakali, bilimi yuksak, ma'nan yetuk

pedagoglar kamolga yetkazadi. Shu bois joriy yilning 15-may kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan videoselektor

yig'ilishida asosiy e'tibor ta'lim va tarbiya, maktab hamda maktabgacha ta'lim masalalariga qaratildi.

Yig'ilishda davlatimiz rahbari "Ta'limda sifat bo'lishi uchun eng avvalo pedagoglarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimi bunga tayyor bo'lishi kerak", deya ta'kidladi.

Bugungi kunda ayni yo'nalishda salmoqli ishlar amalga oshirilyapti.

Xususan, Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti va uning 13 ta hududiy markazi qayta tashkil etildi. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti O'zbekiston milliy pedagogika universitetiga aylantirilib, uning rektori bir vaqtning o'zida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining o'rinbosari bo'ldi.

➡3

Senatorlar – hududlarda

YOSHLAR BILAN MULOQOT

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlari, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari Odiljon Mamatkarimov Namangan viloyatidagi bir qancha tashkilotlarda o'rganish ishlarini olib bordi.

Jumladan, senator xalq deputatlari Uychi tumani Kengashi kotibiyatida bo'lib, "namunalik Kengash" faoliyatini tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Joylardagi o'rganishlar davomida binolarni sifatli ta'mirlash, ishchi xodimlar uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda zamonaviy uskunalar bilan jihozlash masalalariga e'tibor qaratilib, tegishli tavsiyalar berildi.

Shu bilan birga, Namangan davlat texnika universitetida yoshlar ishtirokida "Senator va yoshlar" mavzuida ochiq muloqot bo'lib o'tdi.

Unda Odiljon Mamatkarimov ta'lim

sifatini oshirish, zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar hamda qonun hujjatlaridagi yangiliklar haqida atroflicha ma'lumot berdi.

Uchrashuvda talaba-yoshlar faol ishtirok etib, o'zlarini qiziqitgan savollar bilan murojaat qildi, taklif va fikr-mulohazalarini bildirdi. Bu tarzdagi muloqotlar ochiq va samimiy ruhda o'tib, yoshlarda siyosiy-huquqiy faollikka oshirishga, ta'lim sohasidagi islohotlarni keng jamoatchilikka yetkazish hamda mahalliy Kengashlar faoliyatini yanada takomillashtirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatidir.

O'ZARO DO'STONA ALOQALARNI YANADA MUSTAHKAMLASH YO'LIDA

Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) bilan birgalikda amalga oshirilayotgan parlament faoliyati tajriba almashinuvi dasturi doirasida Oliy Majlis Senati a'zolari va Qonunchilik palatasi deputatlaridan iborat delegatsiyaning Koreya Respublikasiga tashrifi boshlandi.

Hamkorlik

Maqsad Koreya Respublikasining qonun ijodkorligi, parlament faoliyatini to'g'ridan-to'g'ri kuzatish, ochiqlikni ta'minlash, parlamentda IT infratuzilmasini takomillashtirish, mahalliy Kengashlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash va boshqa yo'nalishlar bo'yicha ilg'or xalqaro tajribani o'rganishdan iborat.

Tashrif doirasida Oliy Majlis vakillari seminar mashg'ulotlaridan tashqari yana bir qator tadbirlarda qatnashishi rejalashtirilgan. Jumladan, Koreya Milliy assambleyasi a'zolari, mezbon mamlakat parlamentining

Byudjet, Qonunchilik tadqiqotlari boshqarmalari vakillari, shuningdek, KOICA tashqi hamkorlik guruhi bilan uchrashuvlar bo'lib o'tadi.

Bundan tashqari, mamlakatimiz parlamenti vakillari Xvason shahar kengashi faoliyati bilan yaqindan tanishib, ushbu shahar hokimi bilan ham uchrashadi.

Muloqot davomida ikki mamlakat vakillik organlarining o'zaro aloqalarni yanada mustahkamlash va tajriba almashinuvini yo'lga qo'yish masalalari ko'rib chiqildi.

"Xalq so'zi".

HUUDDLARDA SOLIQ MEXANIZMLARIDAN QANDAY FOYDALANILYAPTI?

Mahalliy vakillik organlari tomonidan nafaqat byudjet tushumlarini oshirish, shuningdek, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan choralar belgilanayotgani ham hududlar rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Binobarin, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida soliq tizimini isloh qilishga qaratilgan bir qator muhim hujjatlar imzolandi. Xususan, yangi tahrirdagi Soliq kodeksida to'g'ridan-to'g'ri qo'llanuvchi normalar belgilandi. Soliq turlari 13 tadan 9 taga kamaytirildi. Yer resurslaridan oqilona foydalanish va hududiy iqtisodiy tengsizliklarni yumshatish maqsadida yer solig'i hamda yer uchastkalarini ijaraga berishdagi to'lov miqdorlariga turli koeffitsiyentlar qo'llanilishiga oid normalar Soliq kodeksining 429-moddasida aks ettirildi.

Seminarlarda qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun soliq stavkalariga oshiruvchi yoki pasaytiruvchi tuman va shaharlarning mahalliy sharoiti, joylashuvi, infratuzilma bilan ta'minlanish darajasi va ularning iqtisodiy faolligiga qarab belgilanishi qayd etildi. Tuman va shaharlar xalq

deputatlari Kengashlari esa ushbu belgilangan soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo'lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla hamda ko'chalar kesimida kiritib borishi Soliq kodeksida ko'zda tutilgan. Koeffitsiyentlarning bunday tarzda belgilanishi nafaqat Davlat byudjetiga tushumlarini barqarorlashtirish, balki ushbu resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda tadbirkorlik faolligini kuchaytirishga bo'lgan oqilona yondashuvni ta'minlashni talab etadi.

Muhokamalarda bugungi kunda mahalliy Kengashlar tomonidan tuman, shahar, daha, massiv, mahalla hamda ko'chalar kesimida oshiruvchi yoki kamaytiruvchi koeffitsiyentlarni belgilashda aniq mezonlar ishlab chiqilmagan tanqidiy baholandi.

Shuningdek, mahalliy Kengashlar qoshidagi tegishli komissiyalar tomonidan hududning soliq-byudjet jarayonlarga aloqador tashkilot va idoralarning chuqur iqtisodiy tahlillar o'tkazmagani yoki ushbu masalaga yuzaki yondashgani sababli oshiruvchi yoki pasaytiruvchi koeffitsiyentlar asossiz ravishda qo'llanilgani tanqid ostiga olindi. Soliq stavkalariga



oshiruvchi yoki pasaytiruvchi koeffitsiyentlar joriy qilish miqdori bo'yicha takliflar hududning byudjet xarajatlarini hamda soliq chiqimi hajmidan kelib chiqib Kengashlarga taqdim etilgani salbiy baholandi. Xalq vakillarining fikricha, kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining holatini to'g'ri baholamadan oshiruvchi koeffitsiyentlarni yuqori belgilash tadbirkor xarajatlarini oshirishga hamda daromadining kamayishiga olib keladi. Tadbirkorlar ko'z faoliyatini soddalashtirishi yoki rasmiylashtirishdan bosh tortishiga, kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy bosimning kuchayishiga sabab bo'layotganiga oid aniq misollar keltirildi.

Seminarlarda muhokama qilingan masala yuzasidan xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga bir qancha taklif va tavsiyalar berildi. Xususan, Kengashlar qoshidagi komissiyalar tomonidan tegishli idora va tashkilotlar vakillari hamda ekspertlarni jalb qilgan holda zaruriy mezonlarni ishlab chiqish hamda oshiruvchi, pasaytiruvchi koeffitsiyentlarni qo'llash bo'yicha aniq hisob-kitoblarni va tahlillarni olib borishda iqtisodiyot va moliya hamda Soliq boshqarmalarida axborot bazasi va elektron dasturlarni joriy etish maqsadga muvofiqligi aytib o'tildi.

Deputatlar tomonidan infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan, tadbirkorlik salohiyati sust yoki

sarmoya yetishmayotgan hududlar uchun imtiyozli koeffitsiyentlar qo'llash takliflarini byudjet so'rovi boshlanishidan oldin tayyorlab, tuman va shaharlar mahalliy Kengashlarida muhokamadan o'tkazib olish, bunda jamoatchilikni keng jalb etish, ushbu jarayonlarning ochiq va shaffofligini ta'minlashda OAV bilan yaqindan hamkorlik qilish yaxshi samara berishi ta'kidlandi. Bundan tashqari, viloyat iqtisodiyot va moliya hamda Soliq boshqarmalaridan mutaxassislar jalb qilgan holda tuman va shahar Kengashlari deputatlari uchun maxsus o'quv seminarlarini o'tkazish maqsadga muvofiq deb topildi.

Seminarlar yakunida ishtirokchilar barcha darajadagi vakillik organlari deputatlarini ko'rgan masala bo'yicha faollikka chaqirib, Prezidentimizning "tushumni ko'paytirish soliq stavkasini oshirish hisobidan bo'lmasligi kerak", degan so'zlarini to'g'ri anglab yetish va ish ko'rishimiz nafaqat tadbirkorlarga imkon berishi, shuningdek, soliq bazasini kengaytirish orqali daromadni ko'paytirishga ham olib kelishini alohida ta'kidlandi.

Bu kabi seminarlar barcha hududda davom etadi.

"Xalq so'zi".

O'rganish

"YASHIL MAKON" UMUMMILLIY LOYIHASI – AMALDA

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi Anvar To'ychiyev boshchiligidagi ishchi guruh Qoraqalpog'istonning Xo'jayli, Qorao'zak, Taxtako'pir, Bo'zatov tumanlari va Nukus shahridagi "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida hududlarni ko'kalamzorlashtirish, daraxtlar ekish va parvarishlash, "yashil belbog'"larni barpo etish borasida amalga oshirilgan ishlar bilan yaqindan tanishdi.

Qoraqalpog'istonda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida joriy yil bahor mavsumida 8 mln. 781 ming tup ko'chat ekish ishleri belgilangan bo'lib, bu ish amalda 9 mln. 254 ming tup daraxt va buta ko'chati ekish orqali uddalandi.

16 ta tuman (shahar) o'rmon xo'jaligi ko'chatxonalariga va 17 ta obodonlashtirish boshqarmasiga hamda ko'chatchilikka moslashtirilgan fermer xo'jaliklari tomonidan iqlim sharoitiga mos manzarali, mevali va

buta ko'chatlari yetishtirib kelinmoqda.

Xususan, ishchi guruh Xo'jayli davlat o'rmon xo'jaligining manzarali va mevali daraxtlarni yetishtirish ko'chatxonasida bo'ldi. Mazkur xo'jalikning umumiy yer maydoni 153 777 gektar bo'lib, shundan o'rmon bilan qoplangan maydoni 1 310 gektarni tashkil etadi. Hozirgi kunda dorivor o'simliklar plantatsiyasida jami 6 gektar na'matak, godji ko'chatlari ekilib, parvarish qilinayapti.

Umuman olganda, xo'jalikda jami 21 turdagi

manzarali va mevali daraxt hamda dorivor o'simliklar ko'chatlari yetishtirilmoqda.

Xo'jalikda joriy yil bahor mavsumida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 586,6 ming tup har xil turdagi manzarali va buta daraxt ko'chati tashkilotlarga shartnoma orqali va bepul tarqatilgan. Shu jumladan, Hozirgi kunda mahallalarga 7,8 ming tup ko'chat beg'araz berilgan.

Bundan tashqari, ishchi guruh a'zolari Bo'zatov davlat o'rmon xo'jaligi faoliyati bilan ham yaqindan tanishdi.

Xo'jalikda jami 10,2 gektar hududda na'matak, zarang, shumtol, ayland, yapon soforasi, qayrag'och kabi 800 mingga yaqin nihollar parvarishlanmoqda.

Ishchi guruh tomonidan ko'chatlarni agrotexnik talablarga mos ravishda ekish, parvarishlash (sug'orish), kasallik va zararkundalarga qarshi kurashish tadbirlarini to'g'ri tashkil qilishga qaratilgan kerakli tavsiyalar berildi.

Senat ishchi guruhining hududlardagi o'rganishlari davom etmoqda. "Xalq so'zi".

Xalqaro anjuman

Tinchlik va farovonlikka bag'ishlangan forum

Termiz shahrida "Tinchlik, do'stlik va farovonlikning umumiy makonini barpo etish" mavzuida Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik bo'yicha Termiz muloqotining birinchi yig'ilishi boshlandi. Forumga Markaziy va Janubiy Osiyo, Yevropa, MDH, Osiyo - Tinch okeani mintaqasi, Amerika, Yaqin Sharq mamlakatlaridan vakillar keldi.



Ishtirokchilar dastlab "Termez Cargo Centre" xalqaro transport-logistika xabini borib ko'rdi.

Xab Prezidentimiz tashabbusi bilan 2022-yil BMT, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlardan Afg'oniston va boshqa mamlakatlarga gumanitar yordamni markazlashtirilgan hamda manzilli yetkazib berishni ta'minlash maqsadida "Termez Cargo Centre" mas'uliyati cheklangan jamiyati negizida tashkil etilgan. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida jahon hamjamiyatini Afg'oniston muammosiga yechim topishda birlashishga chaqirar ekan, afg'on xalqiga ko'rsatilayotgan insonparvarlik yordami zaiflashmasligi kerakligini ta'kidlagan edi.

Forum ishtirokchilari Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi mintaqalararo hamkorlikning joriy holati va istiqbollarni muhokama qiladi. Asosiy e'tibor xavfsizlik, barqarorlik va ichkil rivojlanishni ta'minlash bo'yicha hamkorlikni mustahkamlash, shuningdek, iqtisodiy o'sishni yuksaltirishda xususiy sektor va moliyaviy tuzilmalarning rolini kengaytirish masalalariga qaratiladi.

Anjuman 21-maygacha davom etadi.

"Xalq so'zi".

O'ZBEKISTONNING YEVROPADAGI ISTIQBOLLI SHERIKLARI



Vengriya O'zbekistonning Yevropa Ittifoqidagi muhim sherigi hisoblanadi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbanning 2019-yil 15-oktyabr kuni Boku shahrida Turkiy davlatlar tashkiloti sammiti doirasidagi munosabatlarda yangi davrni boshlab berdi. Darvoqe, davlatimiz rahbarining Vengriyaga tashrifi chog'ida aynan ushbu tashkilotga a'zo davlatlar rahbarlarining norasmiy sammiti o'tkazilishi belgilangan.

Eng yuqori darajadagi faol muloqot ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarni chuqurlashtirishda muhim omil bo'ldi. Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbanning 2021-yilda O'zbekistonga, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2022-yilda Vengriyaga tashrifi ikki tomonlama munosabatlarda yangi bosqichni - ularning strategik institusionalizatsiyasini belgiladi. Ya'ni ushbu tashriflar natijasi o'laroq o'nlab kelishuvlar, jumladan, strategik sheriklikni rivojlantirish to'g'risidagi deklaratsiya imzolandi. Shu tariqa Vengriya Yevropa Ittifoqining O'zbekiston bilan hamkorlikni siyosiy jihatdan eng yuqori darajaga olib chiqqan birinchi mamlakati bo'ldi. Erishilgan kelishuvlar ikki tomonlama munosabatlarga yangi turki berdi. Muhim bitimlar mintaqalararo hamkorlik, yadro energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish sohasida kadrlar tayyorlash, innovatsion rivojlanish, irrigatsiya va suv xo'jaligi sohasida hamkorlik masalalaridagi rejalarni belgilab berdi. Ikki davlat o'rtasidagi o'zaro aloqalarda savdo-sotiq, sarmoyalar, zamonaviy qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati, farmatsevtika va turizm sohasi muhim o'rin tutadi.

Savdo-iqtisodiy munosabatlarning asosi O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi

Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim bilan belgilangan eng qulay sharoitlar rejimidir. O'zbekiston - Vengriya munosabatlari doirasida investitsiya yo'nalishi alohida qiziqish uyg'otadi. Eng muhim loyihalar qatoriga Sirdaryo viloyatida parrandachilik klasterlarini yaratish, Vengriyaning "OTP" banki tomonidan "Ipotekabank"ni xususiy lashtirish, farmatsevtika, "Johnson Safety Systems" bilan avtomobil komponentlari ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish va boshqalar kiradi. Vengriya O'zbekistonni Markaziy Osiyodagi muhim hamkor sifatida ko'radi va o'z navbatida, Toshkent Vengriyaning Yevropa Ittifoqi iqtisodiy makoniga "kirish nuqtasi" sifatidagi salohiyatidan foydalanishdan manfaatdor.

Albatta, ikki tomonlama aloqalarning rivojlanishida tarixiy madaniy omillar ham katta rol o'ynaydi. Jumladan, 1863-yilda O'rta Osiyoga safar qilib Xiva xonligi, Buxoro amirigidagi bo'lgan, Samarqandni ziyorat qilgan vengriyalik olim Arminiy Vamberining "Buxoro tarixi yoki Transsaskoniya" va "O'rta Osiyo bo'yib sayohat" asarlari bugungi kunda ham Yevropada, xususan, Vengriyada Markaziy Osiyo davlatlari tarixi, geosiyosiy ahamiyati, madaniy, tarixiy, iqtisodiy jarayonlarga ta'sir etgan omillarini o'rganishda muhim manba hamda qo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu asarlarda Markaziy Osiyo xalqlari yashash tarzi, davlatchiligi shakllanishi va rivojlanishi, dinning ijtimoiy hayotdagi o'rni hamda iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xosligi, odamlarning yuksak madaniyati, tarbiya va ta'lim tizimi bevosita kuzatuvlar hamda tahlil asosida ochib berilgani ularning ahamiyatini yanada oshiradi.

Ikki davlat rahbarlarining qat'iy siyosiy irodasi, ikki mamlakatning o'ziga xos

o'xshash jihatlari, xususan, Vengriya Yevropa davlatlari uchun O'zbekistonga, o'z navbatida, O'zbekiston Vengriya uchun Markaziy Osiyo mamlakatlari bozoriga ko'priq vazifasini bajarish istiqbollari hamkorlikni yangi yutuqlar bilan to'ldirishni kafolatlaydi. Bu holat Yevropa davlatlarida O'zbekistonga nisbatan munosabatning keskin ijobiy tomonga o'zgariganligini yana bir bor ifodalaydi, ayni chog'da boshqa mamlakatlar bilan ham hamkorlikni ana shunday darajaga chiqarishda muhim qadam hisoblanadi.

Shubhasiz, rivojlangan davlatlarda O'zbekistonga nisbatan ishonchning ortganligi yuritmiz taraqqiyoti yangi davri uchun o'ziga xos va mos xususiyat bo'lib, bu Vatanimizning dunyoga integratsiyalashuviga yangi kuch beradi. O'z navbatida, o'zbek - venger munosabatlarining yangi yo'nalishlarini ishga tushirish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Vengriyaga tashrifi juda samarali bo'lishiga shubha yo'q.

Davlatimiz rahbarining Yevropaga tashrifidagi yana bir manzil Sloveniyadir. Yashash uchun eng xavfsiz, ekologiyasi toza, qit'aning yuragida joylashgan kichik, ammo dinamik ravnaq topayotgan mazkur mamlakat rivojlangan temir yo'l tarmog'i, qulay investitsiya muhiti, Yevropa Ittifoqiga a'zoliqi, malakali ishchi kuchidan foydalanish imkoniyati va strategik joylashuvi jihatdan biznes yuritish uchun istiqbolli makon hisoblanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning ushbu mamlakatga tashrifi chog'ida Sloveniya Prezidenti Natasha Pirs Musar bilan uchrashuvi, ushbu mamlakat parlamenti va hukumati rahbariyati bilan muzokaralarida, qo'shma ishlabarmonlik tadbirlarida ana shu mavzular haqida so'z yuritiladi. O'zaro

manfaatli savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, farmatsevtika, sanoat, oziq-ovqat va to'qimachilik tarmoqlarida kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish, mehnat migratsiyasi sohasida hamkorlik qilish va gumanitar aloqalarni kengaytirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Bu yil 16-yanvar kuni O'zbekiston - Sloveniya munosabatlari o'rnatilganiga 30 yil to'ldi. O'tgan yillar davomida siyosiy muloqot, savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalar izchil rivojlanib keldi. Bugungi kunda ikki davlat parlamentlararo munosabatlarni samarali rivojlantirishga, xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlik qilishga, o'zaro savdo hajmini oshirishga intilmoqda.

Ikki mamlakatning istiqbol tarixi bir vaqtda to'g'ri keladi. Sloveniya ham O'zbekiston kabi 1991-yilda o'z mustaqilligini e'lon qilgan. Bu davlat 2004-yildan boshlab Yevropa Ittifoqi va NATO a'zosi. Huddi 20,3 ming kv. km., mamlakat aholisi taxminan 2,1 mln. kishini tashkil qilishiga qaramay iqtisodiyoti jadal yuksalayotgan davlat.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra Sloveniyaning YAIM 52 mlrd. yevroga baholanadi (dunyoda 84-o'rinda), aholi jon boshiga taxminan 25 ming yevroni tashkil qiladi (dunyoda 35-o'rinda). Inflyatsiya 1 foizdan past, ishsizlik darajasi esa 5 foiz atrofida. Mamlakat iqtisodiyoti ochiq, tashqi savdo hajmi 85 mlrd. AQSH dollariga baholanadi, bunda tovarlar va xizmatlar eksporti ustunlik qiladi (taxminan 45 mlrd. AQSH dollari).

Sloveniya, asosan, dastgohlar, transport vositalari, elektron va telekommunikatsiya jihozlari, farmatsevtika va yog'och mahsulotlari hamda mebellarni eksport qiladi. Import asosini transport vositalari, mineral yog'ilig'i, neft mahsulotlari, mashina va uskunalar, temir, po'lat, aliuminiy, plastmassa va ulardan yasalgan buyumlar tashkil etadi.

Sloveniyaning Yevropa oilasiga a'zoliqi bu yerda biznes yuritish va YElning boshqa davlatlari bilan savdo qilishni sezilarli darajada osonlashtiradi. O'zbekiston uchun istiqbolli bozorlardan sanalgan Sloveniyada zamonaviy avtomobil yo'llari, temir yo'llar va portlarni o'z ichiga olgan rivojlangan transport tarmog'i mavjud. Hukumat tadbirkorlikni faol qo'llab-quvvatlaydi va xorijiy investitsiyalarni rag'batlantiradi.

Sloveniya - turizmning turli yo'nalishlarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar taklif qiluvchi

mamlakat. Hamkorlik uchun yana bir yo'nalish - bu IT texnologiyalari sektori. Ushbu sektor Sloveniyada jadal o'sib bormoqda, bu esa dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, veb-dizayn, kibernetika va boshqa IT xizmatlari uchun imkoniyatlar yaratadi.

Sloveniya, ayniqsa, avtomobilsozlik, metallni qayta ishlash va elektrotexnika kabi sohalarda rivojlangan ishlab chiqarish bazasiga ega. O'z strategik joylashuvi tufayli muhim logistika markazi bo'lib, transport va logistika xizmatlarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar taklif qiladi.

Sloveniya qayta tiklanadigan energiya manbalarini ham rivojlantirishga intilmoqda. Xalqaro sheriklarga quyosh, shamol va gidroenergetikaga investitsiyalar kiritish uchun imkoniyatlar taklif qilyotir. Bu jihatdan O'zbekiston va Sloveniya o'xshash maqsadlarga ega.

Mamlakatda ishlab chiqariladigan kimyo va farmatsevtika, neft-kimyo mahsulotlari, yuvish va sayqallash, parfumiyera vositalari, sun'iy tolalar, shinalar va pnevmokameralar ham dunyoga mashhur.

Oziq-ovqat sanoati tarmog'i Sloveniyada eng yirik ish beruvchilardan biri hisoblanadi. Mamlakatda go'sht va sutni qayta ishlash rivojlangan, un va qandolat mahsulotlari, ichimliklar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Go'shtni qayta ishlash sanoati oziq-ovqat sanoati daromadining 30 foizi va ish o'rnlarning 28 foizini tashkil qiladi. Sektorda ro'yxatga olingan kompaniyalarning qariyb 10 foizi sutni qayta ishlash bilan shug'ullanadi.

Mustaqillikka erishganidan beri Sloveniya o'z savdosini diversifikatsiya qilish hamda transatlantik institutlarga integratsiyalashuvini faol ravishda amalga oshirmoqda. Sloveniya Jahon savdo tashkilotining ta'sischi a'zosi. O'zbekistonning JSTga a'zoliqi borasidagi intilishlarini ham Sloveniya qo'llab-quvvatlaydi. Fakt va raqamlardan ham ko'rinish turibdiki, Yevropaning yuksak sur'atlar bilan rivojlanayotgan, mafunkor tabiati bilan mashhur Sloveniya davlati O'zbekistonning Bolqondagi muhim sheriklaridan biriga aylinishi kutilmoqda. Davlatimiz rahbarining tashrifi davomida imzolangan kelishuvlar, tadbirkorlar bilan o'tkaziladigan muloqotlar o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Abduvali SOYIBNAZAROV, "Xalq so'zi" sharhlovchisi.

ILM VA MA'RIFAT – YUKSALISH GAROVI

Davlatimiz rahbari raisligida maktab ta'limi tizimida islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ko'tarilgan masalalar bilimli, sog'lom, vatanparvar avlodni tarbiyalash va yangi O'zbekiston ta'lim tizimida yechimini kutayotgan masalalarni tizimli hal etishga qaratilgani bilan muhim ahamiyatga ega.

Binobarin, ta'lim sohasiga qaratilayotgan yuksak e'tibor, ajratilayotgan mablag'larning ko'paytirilishi, maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari infratuzilmasining takomillashuvi yurtimizni barqaror taraqqiyot etirish yo'lidagi muhim qadamlardir.

Ayniqsa, pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimida yangilanishlar alohida e'tiborga molik. Jumladan, Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti va uning 13 ta hududiy markazini qayta tashkil etish, Nizomiy nomidagi



Toshkent davlat pedagogika universitetning O'zbekiston milliy pedagogika universitetiga aylantirilishi kabi tashabbuslar o'qituvchi-pedagoglarimizning malakasi va maqomini yanada

mustahkamlashga xizmat qiladi.

E'tiborlisi, shu asosda barcha pedagogika oliygo'hrli faoliyati tubdan takomillashtiriladi. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, Termiz pedagogika institutida hozirgi fakultetlar o'rnida aniq, tabiiy, ijtimoiy, filologiya, amaliy fanlar, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari bo'yicha 6 ta oliy maktab tashkil etiladi.

Fanlar soni optimallashtirilib, 20 tadan 15 taga, ta'lim yo'nalishlari 31 tadan 17 taga qisqartiriladi, o'quv yuklamasi esa 20 foizga kamaytiriladi. Yaqin hududlardagi maktablar institutning amaliyot bazalariga aylantiriladi. Bu yil institutning xorijiy til sertifikatiga ega bo'lgan 20 nafar o'qituvchisi Buyuk Britaniya, Germaniya va Singapur kabi davlatlarda malaka

oshirish kurslarida qatnashadi. Kelgusi uch yil mobaynida esa barcha professor-o'qituvchilar xalqaro malaka oshirish kurslarida tahsil oladi. Bu jarayonlar jahonning "TOP – 100" talik universitetlari bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida tashkil etiladi.

Shuningdek, xususiy oliygo'hrli pedagogika yo'nalishlari sifati nazorat qilinadi va aniq fanlar bo'yicha pedagogik kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi. Bu tashabbus maktablardagi o'qituvchilar yetishmovchiligiga barham berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz tomonidan intiluvchan yoshlarni xorijiy universitetlarda o'qitish uchun "Prezident iqtidorli farzandlari" milliy dasturining amalga oshirilishi

mamlakatimiz bilimdonlariga keng imkoniyatlarni yaratib berishi muqarrar.

Maktabgacha ta'limdagi innovatsion yondashuvlar, tarbiyachilar malakasi va mahoratini oshirish borasidagi yangiliklar ham kelajak avlodning sog'lom va aqlan barkamol bo'lib voyaga yetishini ta'minlashda yuksak ahamiyatga ega.

Ta'lim sohasiga qaratilayotgan e'tibor va bu yo'nalishdagi ijobiy o'zgarishlar xalqimiz farovonligi va mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Odiljon MAMATKARIMOV, Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari.

NAVQIRON AVLOD TARBIYASI – HAYOT-MAMOT MASALASI

Ana shunday tashabbuslardan biri, bu – Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi qoshida Bolalar kontentini rivojlantirish markazi tashkil qilingani. Markaz bolalar tarbiyasi va sog'lig'iga salbiy ta'sir etadigan axborot makonidagi kontentni tahlil qiladi. Mahalliy ijodkorlarga milliy kontent yaratish bo'yicha buyurtma beradi, sohada kadrlar tayyorlashni tashkil etadi.

O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, yosh avlodni zararli axborot xurujlaridan asrashga jiddiy e'tibor qaratish davr talabidir. Boisi bugungi kunda virtual tahdid nihoyatda ommalashib bormoqda. O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, hozirda maktab yoshidagi bolalar internetdan tobora erta foydalanishga kirishayotir. Lekin mutaxassislar fikricha, yoshi o'nga yetmagan bola, odatda, mustaqil ravishda internetdan foydalanish uchun zarur bo'lgan tanqidiy, tahliliy fikrlash va shu asosda ma'lumotlarni farqlash, ularni ajrata bilish, boshqacha aytganda, "filtrlay" olish qobiliyatiga ega emas. Shunday ekan, ongi va dunyoqarashi endigina shakllanayotgan yosh avlodning ma'naviy olami daxlsizligini asrash oldimda turgan eng muhim masalalardan biridir.

Shu bois bu ish bilan nafaqat yangi tuzilgan markaz, balki qaysi sohada faoliyat yuritishimizdan qat'i nazar, har birimiz shug'ullanishimiz shart. Avvalo, o'zimizda har bir otanoning farzandi internet olamida nima bilan bandligini nazorat qilishi va ularga to'g'ri yo'l ko'rsatish ma'naviyatini shakllantirish muhim sanaladi.

Bugungi kunda yoshlarimizning aksariyati "Facebook", "Telegram", "Snapchat", "Tik-Tok" kabi xorijiy ijtimoiy tarmoqlarning doimiy foydalanuvchilari ekanini ko'ramiz. Demak, bu holat milliy saytlarimizni yoshlar uchun jozibador, mazmunli, saviyali, qiziqarli qilib yaratish masalasiga jiddiy e'tibor qilish zarurligini ko'rsatadi.

Videoselektor yig'ilishida aytilgan topshiriq va tadbirlar ijrosini nazorat qilish uchun shab nuzatib, bu masala shaxsan Prezident nazoratida bo'lishi ta'kidlandi.

Tuman hokimlariga har oyda tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari rahbarlari, maktab direktorlari va bog'cha mudiralari bilan uchrashib, muammolarni joyida hal etish vazifasi yuklandi. Ayni chog'da mutasaddilar bundan buyon tuman bo'limi rahbarlarini ta'lim bilan bogliq bo'lmagan birorta yig'ilishga jalb qilib bo'lmagani haqida qat'iy ogohlantirildi.

Yosh avlod tarbiyasi biz yashayotgan XXI asrda, haqiqatan ham, hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. Bu borada e'tiborsizlik yoki zarur choralar ko'rmaslik yoshlarimiz tarbiyasining izdan chiqishiga, yillar davomida tuzatib bo'lmaydigan og'ir oqibatlar olib kelishga sabab bo'lishi mumkin. Shu ma'noda, davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlashda barchamiz birdek mas'ulmiz.

Jamila BOBONAZAROVA, Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi a'zosi.

BILIM VA MALAKA – MUHIM OMIL

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 15-may kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ta'lim sohasidagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish, xususan, pedagog kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab berildi.



Ochig'i, so'nggi vaqtlarda ta'lim uchun yetarli darajada mablag' ajratiladi, imkoniyat yaratiladi. Lekin natija kutilganidek emasligi kishini tashvishlantiradi. Ushbu masalalar tahlilidan kelib chiqib, yig'ilishda Prezidentimiz tomonidan muhim tashabbuslar ilgari surildi.

Ilgari malaka oshirish markazlari – bu bir-ikki haftagina davom etadigan, aksar holda formal ravishda o'tiladigan kurslar bo'lib qolgan edi. Endi Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida o'qituvchidagi o'zgarish to'g'ridan-to'g'ri o'quvchida sezilishi kerak degan prinsip asos qilinaypti. Ya'ni bilim "bir marta va hammaga" emas, zinama-zina, trener – yetakchi o'qituvchi – umumiy jamoa targ'iboti asosida tarqaladi. Masalan, Jizzaxdagi malaka oshirish markazidagi 60 nafar professor-o'qituvchi Singapur, AQSH, Germaniya kabi yetakchi mamlakatlarda metodikasi asosida qayta tayyorlanadi. Maktabdagi 17 ta fanning har biri bo'yicha alohida tayanch maktablari tashkil etiladi. Har bir tayanch maktabning bir nafar o'qituvchisi Malaka oshirish markaziga kelib, o'z yo'nalishida xalqaro dasturlar asosida chuqur tayyorlanadi, ularga trener maqomi beriladi. Ushbu trenerlar o'ziga

biriktirilgan hududdagi 25 nafar yetakchi o'qituvchini o'qitadi, yetakchi o'qituvchilar esa o'z maktabidagi qolgan muallimlarning malakasini oshirib boradi.

Qolaversa, har bir tayanch maktabda maxsus laboratoriya – kasbiy mahorat xonasi tashkil etiladi. U yerda zamonaviy jihozlar, metodik materiallar, interfaol o'quv vositalari bo'ladi. Tuman hokimlari bu xonalarni to'liq jihozlashga shaxsan mas'ul qilib belgilandi. Shu bilan birga, barcha viloyat hokimlari malaka markazlarini faqat devorbo'yoq bilan emas, balki metodika, muhit, bilim, tajriba jihatidan to'liq qayta qurishga javobgar etib belgilandi.

Yana bir muhim yo'nalish – yoshlar bandligi masalasi. Agar har birimiz jihozlar yoshlar nima bilan band degan savolga javob qidirsak, ko'p holda xayolimizga qo'lida telefon, ko'zi ekranda bo'lgan yoshlar gavalanadi. Afsuski, shaharda ham, qishloqda ham shu holat.

Prezidentimiz yig'ilishda ana shu muammoga ham yechim taklif qildi. Haqiqatan ham, mamlakatimizda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi uchun yetarli infratuzilma bor. Faqat ular to'liq ishlatilmaypti. Misol uchun, bugungi kunda mamlakatda 900 ga yaqin teatr, madaniyat markazi va

konsert zalari mavjud. Bundan tashqari, 1,5 mingga yaqin sport maydonchalari, 200 ta oromgoh va 2 mingdan ortiq turizm obyektlari bor. Lekin bu joylarda hayot qaynamaypti. Teatr eshiklari ko'p holda yopiq, madaniyat markazlarida sukunat, ba'zi sport maydonlari esa vaqti-vaqti bilangina ishlaydi.

Shu bois mutasaddilarga aniq topshiriq berildiki, endi har kuni joylardagi amfiteatr va sayilgo'hlarda konsert va musiqa kechalari o'tkaziladi. Madaniyat va istirohat bog'larida san'at ko'rgazmalari, she'riyat kechalari va intellektual o'yinlar tashkil etiladi. Bu tadbirlar nafaqat poytaxtda, balki har bir tumanda, har bir mahallada bo'ladi.

Masalan, "Yangi O'zbekiston" bog'ida har kuni ochiq osmon ostida konsertlar bo'lib o'tadi. Bu tajriba boshqa hududlarga ham tatbiq etiladi. Bog'da kechqurun sayrga chiqqan yoshlar shunchaki vaqt o'tkazmaydi, balki konsert tomosha qiladi, o'zlar bilan madaniy muhitda muloqotda bo'ladi, ijodkorlar bilan ko'rishadi. Bu yoshlarning ruhiyatini ham, dunyoqarashini ham boyitiadi.

Yig'ilishda ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, pedagoglar mahoratini oshirish hamda yoshlar bandligini ta'minlash borasida aniq maqsad, reja, mablag' va mas'ullar belgilandi. Galdagi vazifa biz, xalq vakillari hududlarda mahalliy Kengash deputatlari bilan hamkorlikda ushbu topshiriqlar ijrosini nazorat qilish orqali natijadorlikni ta'minlashdir.

Mavluda ADHAMJONOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

TA'LIM SIFATI UCHUN KURASH KELAJAK OLDDIDAGI MAS'ULIYAT DEMAKDIR

Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi tashkil qilindi.

Darhaqiqat, ta'limdagi muvaffaqiyat kaliti o'qituvchining shaxsiyati, bilimi va kasbiy mahoratiga bog'liq. Pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, ilhomlantiruvchi, zamonaviy ko'nikmalarni shakllantiruvchi shaxs sifatida alohida o'rinni tutadi. Agar biz kelajak avlodni raqobatbardosh, dunyoqarashi keng va vatanparvar qilib tarbiyalashni istasak, bu jarayonda o'qituvchilarning bilim va mahoratlarini muntazam yangilab borishni birinchi galdagi vazifa sifatida qabul qilishimiz zarur.

Shu bilan birga, jamiyatda pedagogga bo'lgan ishonch, hurmat va e'tiborning ortishi uning ruhini ko'taradi. Bu esa, albatta, ta'limda sifatga erishishda muhim. Ushbu ezuq maqsad davlat va jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatini talab etadi. Zotan, ta'lim sifati uchun kurash kelajak uchun mas'uliyat, demakdir.

Intellektual va jismoniy jihatdan barkamol avlodni tarbiyalaydigan yetuk mutaxassislar tayyorlash Buxoro davlat pedagogika instituti oldidagi asosiy vazifadir. Shu bois bugun bu yerda ta'limni zamonaviy talablar va andozalar negizida tashkil etishga urg'u qaratilmoqda.

Professor-o'qituvchilarimiz nafaqat talabalarga ma'ruza o'qish, balki markazdan olis hududlardagi maktablarga borib, u yerdagi muhitni o'zgartirish, o'qituvchi va o'quvchilarning bilim hamda malakalarini oshirish bilan ham shug'ullanib kelmoqda. Shuningdek, institutning tasdiqlangan rejasiga

asosan Romitan, Peshku, Shofirkon, G'ijduvon tumanlaridagi 6 ta umumta'lim maktabida professor-o'qituvchilarimiz tomonidan har kuni soat 14:00 da ingliz tili, matematika, tarix va ona tili fanlaridan onlayn dars mashg'ulotlari o'tkazilmoqda.

Buxoro shahridagi Prezident maktabi, Vobkent tumanidagi 8-maktab, Jondor tumanidagi 1 va 7-maktablar, Kogon tumanidagi 12-maktabda institutning 21 nafar professori doimiy ravishda o'qituvchilarga maxsus metodik yordam ko'rsatib kelyapti. Shu

turmush tarzini qoraytirish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, tibbiy xizmatlarni sifat jihatdan yaxshilash ham davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Bu yurtimizda amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlar va islohotlar markazida INSON omili turganining yaqqol ifodasidir.

Yig'ilishda ta'kidlanganidek, oxirgi yetti yilda maktabgacha va maktab ta'limi uchun mablag' 7 karra oshirilgan va joriy yilda 60 trln. so'm yo'naltirilayotgani – bu shunchaki

“ Ta'limdagi muvaffaqiyat kaliti o'qituvchining shaxsiyati, bilimi va kasbiy mahoratiga bog'liq. Pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, ilhomlantiruvchi, zamonaviy ko'nikmalarni shakllantiruvchi shaxs sifatida alohida o'rinni tutadi. Agar biz kelajak avlodni raqobatbardosh, dunyoqarashi keng va vatanparvar qilib tarbiyalashni istasak, bu jarayonda o'qituvchilarning bilim va mahoratlarini muntazam yangilab borishni birinchi galdagi vazifa sifatida qabul qilishimiz zarur. ”

bilan birga, o'quvchilar uchun ingliz tili va biologiya to'garaklari tashkil qilinib, turli tanlovlar o'tkazilmoqda.

Yoshlar masalasi bugungi global raqobat va innovatsion taraqqiyot sharoitida har doimgidan-da dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois yangi O'zbekistonda navqiron avlodning ta'lim olishi uchun zamonaviy maktablar, oliygo'hrli, ilmiy laboratoriyalar barpo qilinaypti. Bir vaqtning o'zida sog'lom

statistik ma'lumot emas. Bu inson, ayniqsa, yosh avlod kamolotiga yo'naltirilgan mablag' mamlakat kelajagi uchun eng muhim investitsiya ekanining amalda namoyon bo'lishidir.

Maoshlarni oshirish, ustamlar joriy etish, malaka va natija asosida moddiy rag'batlantirish tizimining yo'lga qo'yilgani jamiyatda o'qituvchilar mehnati munosib qadrlanayotganidan darak beradi. Prezidentning ta'lim sifati



oshirish bo'yicha ustuvor vazifalaridan biri – o'qituvchiga e'tiborni kuchaytirish borasidagi ko'rsatmalari bugun hayotda o'z aksini topayotgani har qanday kishini xursand qiladi.

Yig'ilishda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Ayniqsa, ularni sport, san'at, kitobxonlik, fan va texnologiya yo'nalishlariga jalb etish orqali bo'sh vaqtini samarali o'tkazish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligi ta'kidlandi. Bu esa yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, salbiy ta'sirlardan himoya qilish va ularni milliy qadriyatlariga sodiqlik hamda zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi aytiladi.

Bugungi kunda yoshlarni zararli axborotlar ta'siridan himoya qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo'nalishda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, axborot xuruj sharoitida yoshlarning qabli va ongini turli tahdidlardan asrash uchun faqatgina nazorat emas, balki ularga muqobil ravishda mazmunli, milliy g'oyalarga asoslangan zamonaviy kontent yaratish zarur.

To'g'ri, bugungi kunda yoshlar ma'naviyati bilan hamma shug'ullanaypti. Lekin zararli

axborotlarga qarshi tura oladigan milliy kontent yaratish, ularning targ'iboti, ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha professional tashkilot yo'q", deya ta'kidladi davlatimiz rahbari. Bundan yoshlar ongini asrash faqat ta'lim va tarbiya bilan cheklanmasligi, balki zamonaviy axborot maydonida milliy g'oyani ilgari sura oladigan kreativ va tizimli yondashuv zarur ekanligi ayonlashadi.

Milliy kontent – axborot xurujiga qarshi ma'naviy qalqondir. Shu bois professional ijodkorlarni qo'llab-quvvatlaydigan, maqsadli kontent ishlab chiqadigan maxsus tashkilotga ehtiyoj ortib bormoqda.

“Yoshlarimiz juda iqtidorli. Ularni tizimli yo'naltirib, oliygo'hr tanlashga ko'maklashib, maqsadli tayyorlashni yo'lga qo'yisak bo'ladi, ko'rsatkichlarimiz karrasiga oshadi”, dedi Prezident. Bu fikrlar, avvalo, ta'lim tizimi va yoshlar siyosatiga yangicha qarashni talab etadi. Yoshlarga yo'l ko'rsatish – ularning kelajagini, ya'ni Vatan kelajagini yo'lga qo'yish demak.

Davlatimiz rahbari videoselektor yig'ilishida qayd etgan raqamlar, belgilab bergan ustuvor vazifalar ta'lim sohasida islohotlar bugun yangi bosqichga ko'tarilganidan, inson omilini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotganidan va har bir fuqaro, ayniqsa, yoshlar uchun imkoniyatlar maydoni kengayib borayotganidan dalolat. Bu Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hayotga izchil tatbiq etilayotganining amaliy ko'rinishidir.

Bahodir MA'MUROV, Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, professor.

TARAQQIYOT ZANJIRI

Bola oliy o'quv yurtida yaxshi o'qishi uchun u maktabda yetarlicha bilim olgan, ko'nikmalarni yaxshi egallagan bo'lishi kerak. O'z navbatida, farzandimiz maktabda a'lo baholarga o'qishi, o'zini har taraflama ijobiy tomondan namoyon qilishi uchun bog'chada, ya'ni maktabgacha ta'lim tashkilotida mukammal tarbiyalangan bo'lishi kerak. Ko'rinib turibdiki, bu yerda bir-birini talab etuvchi zanjir bor.

Qachonki, ana shu zanjir mustahkam bo'lsa, ta'lim-tarbiya sohasidagi ishlar ham ko'ngildagidek rivojlanadi. Bir so'z bilan bu jarayonni taraqqiyot zanjiri, deb atash mumkin. Shu ma'noda, yetuk, bilimli avlodni tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tizimining o'rni juda muhim.

Bugungi kunda yurtimizda 7 mingta davlat va 31 mingdan ziyod xususiy bog'chalar faoliyat yuritmoqda. Olti yoshli bolalarning 96 foizi maktabga tayyorlov guruhlari va boshlang'ich ta'lim o'quv dasturlari o'zaro uyg'unlashadi. Buning uchun bog'cha bolalarini matematika, tabiiy fanlar va texnologiya yo'nalishlarida tanqidiy va kreativ fikrlashga o'rgatadigan dasturlar ishlab chiqiladi. Mazkur tizim bolalarda ilgama bo'lgan qiziqishni, mustaqil tafakkurni va ijtimoiy faollikni barvaqt shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda bola faqat bilim oluvchi emas, balki faol o'rganuvchi, tadqiqotchi va ijodkor sifatida rivojlanadi.

Shuningdek, bog'cha tarbiyachilarining malakasi, mahorati va psixologik tayyorgarligini oshirish uchun kasbiy sertifikatlash tizimi joriy etiladi.

Nega kasbiy sertifikatlash kerak? Aytish joizki, hozirgi vaqtda pedagog kadrlar sonini oshirish bilan bir qatorda, ularning sifatini ta'minlash masalasi ham kun tartibida turgan muhim vazifalardan sanaladi. Tan olish kerak, bugungi kunda ayrim tarbiyachilarning ta'lim-tarbiya usullari eskicha, bolalar bilan ishlashdagi yondashuvlari esa samarasiz. Bu esa nafaqat bolaning o'sishiga, balki butun ta'lim tizimiga salbiy ta'sir o'tkazuvchi omillardan biridir.

Umuman olganda, bu tizim orqali har bir tarbiyachi o'z salohiyatini namoyon qilish, bilim va mahoratini oshirish, zamonaviy talablarga mos ravishda bolalarga sifatli ta'lim berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Zero, maktabgacha ta'lim bola shaxsiyatini rivojlantirishdagi muhim bosqichdir. Bu davrda bolaning dunyoqarashi, his-tuyg'ulari va eng asosiy, o'qishga bo'lgan qiziqishi shakllanadi.

Shunday ekan, bog'chadagi har bir tarbiyachining bilimi, malakasi, shaxsiy fazilatlari va psixologik tayyorgarligi yuqori bo'lishi lozim. Kasbiy sertifikatlash ana shunga xizmat qiladi.

Ta'lim tizimiga joriy qilinayotgan bunday islohotlar yangi O'zbekiston ostonasi ta'limdan boshlanadi degan g'oyaning hayotdagi in'ikosidir. Zotan, o'quvchilar bog'cha va maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni bo'ladi. Binobarin, har qanday mamlakat taraqqiyotini sog'lom va bilimli avlod belgilaydi.

Pokiza AHMEDJONOVA, Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi a'zosi.

